

SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik



2023- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2019- 2023- yil yanvar- iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), *birlikda*




Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **11 223** tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **3 111** mingtaga yoki **21,7 %** ga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **17,4** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


2023- yil yanvar- iyunida **1 210** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,3 %** ga kam demakdir.

2023- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni jami **11 223** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **1 210** tani tashkil etdi.


2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Guliston shahrida **2 657** tani yoki jamiga nisbatan **23,7 %** ni tashkil etdi.

2019- 2023- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*



2023- yil yanvar- iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbatan **17,4** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022- yilga nisbatan **1,2** birlikka ko'paygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbati eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida **27,5** birlik, Sardoba **21,0** birlik, Oqoltin **20,7** birlik, Guliston tumanlarida **18,8** birlik, hamda Yangiyer shahrida **17,9** birlikka yetdi.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*

Guliston sh.	27,5
Sardoba	21,0
Oqoltin	20,7
Guliston	18,8
Yangiyer sh.	17,9
Mirzaobod	17,7
Sayxunobod	17,4
Shirin sh.	15,0
Sirdaryo	14,4
Xovos	14,2
Boyovut	11,5

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*

Eng yuqori
ko'rsatkich

Guliston shahar
– 27,5 birlik.

O'rtacha
ko'rsatkich

Mirzaobod tumani
– 17,9 birlik.

Eng past
ko'rsatkich

Boyovut tumani
– 11,5 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000** aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida **27,5** birlik, Sardoba tumanida **21,0** birlik, Oqoltin tumanida **20,7** birlik, Guliston tumanida **18,8** birlik, Yangiyer shahrida **17,9** birlik, Mirzaobod tumanida **17,7** birlik, Sayxunobod tumanida **17,4** birlik, Shirin shahrida **15,0** birlik, Sirdaryo tumanida **14,4** birlik kuzatildi.

2023- yil yanvar- iyun oylarida har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda*

Guliston
shahar
27,5

Sardoba
tumani
21,0

Oqoltin
tumani
20,7

Guliston
tumani
18,8

Yangiyer
shahar
17,9


Mirzaobod
tumani
17,7

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, *birlikda*

2022- y.		2023- y.
246	Guliston sh.	255
177	Sardoba	184
173	Sirdaryo	140
138	Oqoltin	135
84	Sayxunobod	106
90	Mirzaobod	89
105	Guliston	88
91	Boyovut	71
49	Xovos	69
56	Yangiyer sh.	58
29	Shirin sh.	15


2023- yilning yanvar- iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2023- yil yanvar- iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Guliston shahri **21,1 %**, Sardoba **15,2 %**, Sirdaryo **11,5 %**, Oqoltin **11,2 %**, Sayxunobod **8,8 %**, Mirzaobod **7,4 %**, Guliston **7,3 %**, hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2022- 2023- yil yanvar- iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, *birlikda*



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, *birlikda*




2023- yil yanvar- iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida **492** ta, qishloq xo'jaligi **361** ta hamda sanoatda **135** ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Guliston shahrida **255** ta, Sardoba tumanida **184** ta hamda Sirdaryo tumanida **140** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019- 2023- yil yanvar- iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, *birlik*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019- 2023- yil yanvar- iyun oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, *birlik*



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida, Sirdaryo viloyatida 2019- 2023- yil yanvar- iyun oylari davomida jami **7 121** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **2 791** (yoki **39,2 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – **1 496** ta (yoki **21,0 %**), xizmatlar sohasida – **1 164** ta (yoki **16,3 %**), sanoat sohasida – **1 137** ta (yoki **16,0 %**) va qurilish sohasida – **533** ta (yoki **7,5 %**) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan sohalar

Kichik korxona va mikrofirmalar so‘ngi 5 yil yanvar- iyun oylarida eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan soha va yo‘nalishlar


Tarmoq nomi	Korxonalar soni, birlik	Tarmoqdan ulushi, %da
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi		
Aralash qishloq xo‘jaligi	295	19,7
Dehqonchilik sohasida boshqa xizmatlar ko‘rsatish	225	15,0
Sitrus mevalar etishtirish	157	10,5
Sabzavotlar etishtirish	118	7,9
Paxta yetishtirish	92	6,1
Sanoat		
Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoe ishlab chiqarish	240	21,1
Boshqa to‘qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish	63	5,5
Betondan qurilish uchun buyumlar ishlab chiqarish	54	4,7
Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish	53	4,7
Beton, qurilish gipsi va tsementdan boshqa buyumlar ishlab chiqarish	47	4,1
Qurilish		
Turar joy binolarini qurish	169	31,7
Yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish	130	24,4
Yo‘llar va shosselar qurish	48	9,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	39	7,3
Elektrotexnik va montaj ishlari	29	5,4
Savdo		
Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi	444	15,9
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi	398	14,3
Ixtisoslashmagan ulgurji savdo	311	11,1
Yog‘och, qurilish materiallari va sanitariya-texnik uskunalar ulgurji savdosi	111	4,0
Ixtisoslashgan do‘konlarda non mahsulotlari, undan tayyorlangan va shakarli qandolat mahsulotlari chakana savdosi	102	3,7
Xizmatlar sohasi		
Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari etkazish bo‘yicha xizmatlar	224	19,2
Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	155	13,3
Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar	93	8,0
Avtomobil transportida yuk tashish	85	7,3
To‘lovlarni yig‘ish bo‘yicha agentliklar va kredit byurolari faoliyati	44	3,8

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi besh yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, so'ngi 5 yilning II- choragida eng ko'p savdo sohasining ixtisoslashmagan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi yo'nalishida **444 ta** yangi kichik korxona va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 5- yilning II-choragida tashkil etilgan korxonalarining **15,9 %** ni tashkil etmoqda. Bundan tashqari, so'ngi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va ta'lim yo'nalishlarida ham ko'plab kichik korxona va mikrofirmalar ochilayotganligini ko'rishimiz mumkin.


Shuningdek, sanoat sohasida so'ngi yillarda asosan non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, betondan qurilish uchun buyumlar ishlab chiqarish, boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qurilish sohasida esa ko'proq yangi kichik korxona va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, yo'llar va shosselar qurish yo'nalishlarida ko'proq tashkil etilmoqda.

2022- 2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2018- 2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar- iyun oyida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar, % da




2023- yil yanvar- iyun oylarida YaHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **61,3 %** ni tashkil qilib, 2022- yilga nisbatan **1,7** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.


2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **97,6 %** ni, yo'lovchi aylanmasida **97,6 %** ni, yo'lovchi tashishda **95,2 %** ni, yuk tashishda **92,6 %** ni, chakana savdoda **92,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


2018- 2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



2018- 2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




2018- 2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


2018- 2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



2018- 2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati



2018- 2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2023- yil yanvar- iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, *mlrd. so'm*

Sirdaryo	650,7
Guliston sh.	345,9
Yangiyer sh.	317,6
Shirin sh.	299,8
Sayxunobod	162,7
Boyovut	134,6
Mirzaobod	127,7
Sardoba	112,7
Xovos	90,3
Oqoltin	72,9
Guliston	70,9

2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2 385,7** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo tumani (**650,7** mlrd. so'm), Guliston shahar (**345,9** mlrd. so'm), Yangiyer shahar (**317,6** mlrd. so'm), Shirin shahar (**299,8** mlrd. so'm) va Sayxunobod (**162,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Guliston tumanida (**70,9** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da


Sardoba	89,9
Yangiyer sh.	84,6
Xovos	69,1
Sayxunobod	59,4
Guliston sh.	58,8

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018- 2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar- iyun oylarida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2023- yil yanvar- iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 32,6 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikni jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Sardoba tumani (89,9 %), Yangiyer shahar (84,6 %), Xovos tumani (69,1 %), Sayxunobod tumani (59,4 %), Guliston shahar (58,8 %), Sirdaryo tumani (45,2 %), Mirzaobod tumani (42,2 %), Boyovut tumani (33,9 %), Guliston (31,7 %) va Oqoltin (31,2 %) tumanlari tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2023- yil yanvar- iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi



■ hajmi ■ foizi


2018- 2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik byektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari jmi 1 353,5 million so'mni yoki qurilish ishlari numiy hajmining 81,0 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 22- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan 97,0 % ni shkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik byektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari ajmi Guliston shahri (434,9 mlrd. so'm), Mirzaobod (395,4 mlrd. so'm), Sirdaryo tumanlari (111,6 mlrd. so'm), Yangiyer shahar (104,1 mlrd. so'm), Sardoba (63,5 mlrd. so'm), Guliston (50,8 mlrd. so'm) hamda Xovos (47,4 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018- 2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 5 218,1 milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining 79,5 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan 100,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Boyovut tumani (4 186,4 mlrd. so'm), Guliston shahar (232,1 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (205,5 mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (200,1 mlrd. so'm), Yangiyer shahar (163,1 mlrd. so'm), Shirin shahar (64,4 mlrd. so'm) hamda Sayxunobod tumanlarida (50,1 mlrd. so'm) qayd etildi.

2018- 2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi (mlrd. so'm) va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati


2018- 2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **4 869,5** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **97,6 %** ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **105,4 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Boyovut (**879,0** mlrd. so'm), Sayxunobod (**640,3** mlrd. so'm), Guliston (**604,0** mlrd. so'm), Sirdaryo (**567,3** mlrd. so'm), Sardoba (**529,9** mlrd. so'm) hamda Oqoltin (**509,9** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018- 2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018- 2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **2 028,7** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **92,0 %** ni tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **105,5 %** ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar- iyun oyida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm




2018- 2023- yil yanvar- iyun oyida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Guliston shahar (**766,4** mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (**428,6** mlrd. so'm), Yangiye shahar (**191,8** mlrd. so'm), Mirzaobod (**146,6** mlrd. so'm), Boyovut (**90,2** mlrd. so'm) va Guliston (**89,3** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018- 2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar- iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mlrd. so'mda




2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1 418,3** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **50,7 %** ni tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan **105,7 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Guliston shahar (**403,6** mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (**259,8** mlrd. so'm), Yangiye shahar (**157,1** mlrd. so'm), Mirzaobod (**110,8** mlrd. so'm), Xovos (**93,5** mlrd. so'm), Boyovut (**91,3** mlrd. so'm) va Guliston (**79,0** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2023- yil yanvar- iyun oylarida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari





Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **46,3 %** (**656,0** mlrd. so'm), transport xizmatlarida – **23,8 %** (**338,0** mlrd. so'm), Yashash va ovqatlanish xizmatlari – **5,1 %** (**72,7** mlrd. so'm) hamda Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarda **4,6 %** (**65,7** mlrd. so'm)ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida **0,4 %** (**6,4** mlrd so'm) kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati


2018- 2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




2018- 2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


Hajmi, mln. AQSH dol.



Ulushi, % da




2018- 2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **114,0** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **64,6** % ni tashkil etdi.

2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.


2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi



2023- yil yanvar- iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining eng ko'p ulushi Yangiyer shahar **100,0** %, Sardoba tumanida **99,2** %, Yangiyer shahar **97,8** %, Oqoltin **94,4** %, Xovos **75,9** %, Sayxunobod **60,5** %, Boyovut **60,2** % va Sirdaryo tumanlarida **39,1** %, eng past ko'rsatkich Guliston tumanida **0,3** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


2018- 2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **152 892,6** ming. AQSH dollarini yoki jami importning **66,9 %** ni tashkil etdi.


2023- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2023- yil yanvar- iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Sardoba tumani **100,0 %**, Yangiyer shahar **99,7 %**, Sayxunobod **99,4 %**, Guliston **99,4 %**, Oqoltin **98,4 %**, Shirin shahar **75,3 %**, Boyovut tumanlarida **74,0 %** ni tashkil etdi.



■ hajmi — foizi


Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati



Yuk
tashishda

2023- yil yanvar- iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **92,6 %** ni tashkil etdi.


2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **100,8 %** ni tashkil qildi.



Yuk
aylanmasida

2023- yil yanvar- iyun oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **84,6 %** ni tashkil etgan bo'lib,


2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **102,2 %** ni tashkil qildi.



Yo'lovchi
tashishda

2023- yil yanvar- iyun oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,2 %** ni tashkil etib,

2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **100,3 %** ni tashkil qildi.




Yo'lovchi
aylanmasida

2023- yil yanvar- iyun oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,6 %** ni tashkil etib,

2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **100,4 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil II- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil II- chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **618** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **204 (33,0 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **352 (57,0 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **62 (10,0%)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **42,5 % (263 ta)**, xizmatlar sohasida – **25,9 % (160 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **13,8 % (85 ta)**, sanoatda – **9,4 % (58 ta)**, qurilishda – **8,4 % (52 ta)** ni tashkil etdi.

2023- yil II- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2023- yil II- chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Guliston shahri (164 ta), Sirdaryo (84 ta), Boyovut tumanlari (55 ta), Yangiyer shahar (51 ta) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillar uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2018- yilda **341** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **354** taga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **13** taga oshgan.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2018- yilda **265** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilda **689** ta yoki **424** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018- yilda **35** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib **131** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018- yilga nisbatan **96** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023 yillar uchun umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarning soni 2018- yilda **219** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **407** taga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **188** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning soni 2018- yilda **66** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilda **529** ta yoki **463** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2018- yilda **23** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib, bu ko'rsatkich **104** tani tashkil etib, **81** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillar uchun umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilda 53,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa 30,2 % ga yoki 2018- yilga nisbatan 23,0 % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2018- yilda 41,3 % bo'lgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2023- yilda 58,7 % yoki 2018- yilga nisbatan 17,4 % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018- yilda 5,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilda 11,2 % yoki 2018- yilga nisbatan 5,7 % birlikka oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillar uchun umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi
(o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilda **71,1 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **39,1 %** ga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **32,0 %** birlik kamaygan.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2018- yilda **21,4 %** bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilda **50,9 %** yoki 2018- yilga nisbatan **29,5 %** birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018- yilda **7,5 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib, bu ko'rsatkich **10,0 %** yoki **2,5 %** birlikka oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2023- yilning II- choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **45,6 %** ni, xizmatlar sohasida – **27,5 %** ni, sanoatda – **10,3 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdo – **41,8 %** ni, xizmatlar sohasida – **23,9 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **18,5 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdoda – **37,0 %** ni, xizmatlar sohasida – **32,3 %** ni, sanoat sohasida – **11,3 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2023- yilning II- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **44,8 %** ni, xizmatlar sohasida – **23,5 %** ni, qurilish sohasida – **19,2 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **40,1 %** ni, xizmatlar sohasida – **27,8 %** ni, qishloq xo'jaligi – **13,7 %** ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **42,3 %** ni, xizmatlarda – **34,6 %** ni va qurilish sohasida – **19,2 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	39,6	47,6	12,7
Band bo'lganlar soni	17,4	74,8	7,8
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	39,4	51,4	9,2
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	31,6	55,8	12,6
Raqobat muhiti	41,6	51,1	7,3

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	49,2	46,3	4,5
Band bo'lganlar soni	27,3	70,4	2,3
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	42,9	53,1	4,0
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	39,2	55,5	5,3
Raqobat muhiti	46,6	50,8	2,6


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning II- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli